O‘SMIR VA O‘SPIRINLIK XUSUSIYATLARI VA PSIXODIAGNOSTIKASI

Ravshanbekova Sabinaxon Dilshodbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti 2 – bosqich pedagogika
va psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi
Salaydinova Asaloy Sherzodbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti 2 – bosqich pedagogika
va psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Inson hayoti davomida turi yosh davrlarni boshidan o‘tkazadi. Ularni xar biri o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushbu tezisda eng murakkab psixologik davr xisoblangan o‘smirlik va o‘spirinlik yoshining biologik – fiziologik va psixologik xususiyatlari haqida hamda ularning diagnostikasi borasidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik, o‘spirinlik, yosh davrlari, diagnostika, metodika.eksperiment, test, tajriba.

Abstract: During human life, the species goes through young periods. Each of them is unique. This thesis describes the biological, physiological and psychological characteristics of adolescence and adolescence, which are considered the most complex psychological period, as well as opinions on their diagnosis.

Key words: adolescence, adolescence, youth periods, diagnosis, methodology.

Yosh davrlarini bir nechta chet el olimlari tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ulardan biri D.B.Elkonindir. U yosh davrlarini quyidagicha ajratgan:

1. Go‘daklik davri - tug‘ilgandan to 1 – yoshgacha
2.Ilk bolalik davri – 1 – 3 yoshgacha
3.Maktabgacha tarbiya yosh davri 3 – 7 – yosh
4. Kichik maktab yoshi davri - 7 – yoshdan to 11 – yoshgacha
5. O‘smirlik yoshi davri – 11 – 15 – yosh davri
6. Ilk o‘spirinlik yoshi davri - 16 – 18 – yosh

O‘smirlik yoshi 10—11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Ko‘pchilik o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi.Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Bu o‘zgarishlar fiziologik hamda psixologik o‘zgarishlardir. Fiziologik o‘zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog‘liq ravishda tanadagi barcha a’zolarning mukammal rivojlanishi va o‘sishi, xujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir.

O‘smirlik davriga ko‘pincha so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, tajanglik, o‘z kamchiliklarini tan olmaslnk, urushqoqlik kabi xususiyatlar xosdir. Kattalarga nisbatan yomon munosabatning paydo bo‘lishi, noxush xulq-atvor alomatlari jinsiy yetilish tufayli paydo bo‘ladigan belgilar bo‘lmay, balki ular bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan, o‘smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar vositasi orqali: uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqei tufayli, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o‘zgartirish yo‘li bilan o‘smirlarning xulq-atvoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatish mumkin. O‘smirlar nihoyatda taqlidchan bo‘lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo‘ladi. Ular tashqi ta’sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo‘ladilar.Shuningdek, ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham xosdir. Tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik o‘smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo‘ladi.Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning, ustozlarning to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatishlariga qaramay, o‘z fikrlarini o‘tkazishga harakat qiladilar. Juda ko‘p o‘smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qoladilar. O‘smirlik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan so‘z boyliginingoshishi hisobiga bo‘lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea va hodisalarning mazmun mohiyatini anglashlari hisobiga bo‘ladi. Bu davrda o‘smir til yordamida atrof-borliqni aks ettirilishi bilan bir qatorda inson dunyoqarashini ham belgilab berish mumkinligini his qila boshlaydi.

O‘spirinlik davrini esa «kamolot bo‘sag‘asi” deb atasak ham bo‘ladi. Chunki ushbu yosh davri ham ancha murakkab fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o‘z ichiga oladi. Yosh davrlari psixologiyasi fani o‘spirinlik yoshi davri muammosini kompleks o‘rganadi. Sababi bu katta masala sanalib, psixofiziologik taraqqiyot sur’ati bilan uning bosqichlari ijtimoiy yetilish muddati bilan hamma vaqt ham to‘g‘ri kelavermaydi.

Yosh psixologiyasi o‘spirinlikning yoshini 1-2 bosqichlar bilan bog‘lab kelar edi. Akseleratsiya munosabati bilan o‘spirinlik yoshining chegarasi endi15-16 dan 18 yoshgacha bo‘lmoqda. Demak, o‘spirinlik ham oldin boshlanadi. Lekin, bu taraqqiyot davrining konkret mazmuni birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o‘rni, ularning mavqei, ular egallaydigan bilimlarning hajmi va bir qator boshqa faktorlar ijtimoiy sharoitlarga bog‘liqdir.

Ilk o‘spirinlik yoshi bolalarning15 yoshdan18 yoshgacha bo‘lgan taraqqiyot davrini o‘z ichiga oladi. Bu akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilaridir. Bo‘yning o‘sishi o‘spirin qizlarda 15-16 yoshgacha, o‘g‘il bolalarda 17-18 yoshgacha davom etadi.

O‘spirinlar(16-18 yoshlar) o‘zlarining psixologik xususiyatlari bilan boshqa yosh davrdagi bolalardan keskin farq qiladilar. Jismoniy hamda aqliy jihatdan voyaga yetgan, kamolotga erishgan, dunyoqarashi, o‘z- o‘zini boshqarishi kabi yetuk insoniy xususiyatlari tarkib topgan bo‘ladi. Ular vazmin, mulohazali bo‘ladilar, katta yoshdagilarga hurmat-ehtirom bilan qaraydilar. Ular uzoqni ko‘zlaydigan, kelajak uchun qayg‘uradigan, ota-onalarining yaqin yordamchisiga aylanadilar. O‘quv faoliyati o‘spirinning asosiy faoliyati bo‘lib qolaveradi, o‘qishga nisbatan o‘smirlik yoshiga qaraganda o‘spirinlikda bir muncha yuqoriroq bo‘ladi. Mustaqil hayotga tayyorgarligini o‘z- o‘zini anglashi bilan motivlar bu davrda yetakchi o‘rinni egallaydi. Motivlar tizimida jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishga intilish, insonlarga naf keltirish kabi ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi.

O‘smirlik va o‘spirinlik yoshini xususiyatlarini to‘g‘ri diagnostika qilish juda muxum. Diagnostikada testlardan ham keng foydalaniladi. Hozirgi davrda nodir testlar qatoriga psixologlardan Rorshax, Rozensveyg, Kettel, Vartegg, Veksler,

Meyli, Ayze, Anastazi, Raven va boshqalar ijodining namunalarini kiritish mumkin. Eng keng tarqalgan testlar qatoriga yutuqqa erishish (maqsadga yetish) testlari (ular darsliklarda berilgan va bilim, malaka darajalarini baholashga qaratilgan), intellect testlari (aqliy rivojlanish darajasini o‘lchashga mo‘ljallangan), shaxs testlari (inson irodasi, emotsiyasi, qiziqishi, motivatsiyasi va xulqini baholashga yo‘naltirilgan diagnostik usullardan iboratdir), shaxs «loyihasi» (proyektiv) testlari (savollarga bitta aniq javob berish talab qilinadi, javoblarni tahlil qilib shaxs xususiyatining «loyihasi» ishlab chiqiladi) kiradi.

Tajriba (eksperiment) metodi. Bu metod turli èshdagi odamlar (chaqaloq, bola, o‘spirin, balog‘atga yetgan va qarilar)ning psixikasini chuqurroq, aniqroq tadqiq qilish metodlari ichida eng muhimi hisoblanadi.

Eksperiment metodi yordamida sun’iy tushunchalarning shakllanishi, nutqning

o‘sishi, favqulodda holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning his-tuyg‘ulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o‘rganiladi. Inson psixikasining nozik ichki bog‘lanishlari, munosabatlari, qonuniyatlari, qonunlari, xossalari, murakkab mexanizmlari tekshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yosh va pedagogik psixologiya. O‘quv qo‘llanma. M.G.Davletshin, Sh.Do‘stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To‘ychiyeva, M. Djumabayeva. Toshkent 2007 – yil.

2. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti xuzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi amaliy psixologiyanng asosiy yo‘nalishlari moduli bo‘yicha o‘quv – uslubiy majmua. Toshkent 2018 – yil